HUQUQ BUZARLIK TURLARI VA ULARNI SODIR ETILISH SABABLARI

Maxmudova Malika Azamatovna

Sarbon universiteti, Yurisprudensiya yo‘nalishi 023-guruh talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20099842

Annotatsiya: mazkur maqolada huquqbuzarlikning turlari va unga olib keluvchi sabablar atroflicha o‘rganilgan.Tahlillar natijasida, amaliyotda eng ko‘p uchrovchi huquqbuzarliklarni oldini olish uchun bir nechta ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarlik, jamiyat, qonun, obyekt, subyekt, jinoyat

Kirish

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida qonun ustuvorligini ta’minlash muhimahamiyatga ega. Biroq, turli xil huquqbuzarliklar sodir etilishi ushbu jarayonga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Huquqbuzarlik-bu huquq va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishida sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xafli qilmishdir.[1]

Adabiyotlar tahlili

B. Temirov [2] tomonidan yozilgan ilmiy ishda "huquqbuzarlik profilaktikasi" va "huquqbuzarlikning oldini olish" tushunchalarining mohiyati va mazmunini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Muallif "Huquqbuzarlik profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga asoslanib, huquqbuzarlikning huquqiy ta'rifini bayon qiladi va uning sodir etilishidagi sabablar tizimini obyekt, subyekt va usul bo'yicha tasniflaydi.

Tahlilning ahamiyati shundaki, muallif huquqbuzarlik sabablarini ikki guruhga - obyektiv (iqtisodiy, ijtimoiy, demografik) va subyektiv (psixologik, ma'naviy) omillarga bo'lib o'rganadi. Maqolada profilaktika faoliyatining tarkibiy qismlari ham aniq belgilab berilgan bo'lib, bu amaliyotda mahalliy organlar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Muallif D.A. Sayfiddinova [3] tomonidan chop etilgan ilmiy ishda jinoiy xatti-harakatlarga ta'sir qiluvchi psixologik, sotsiologik va ekologik omillar har tomonlama o'rganilgan. Tadqiqotda aralash usulli yondashuv - miqdoriy va sifat tahlillar birgalikda qo'llanilishi metodologik jihatdan diqqatga sazovordir.

Maqolaning asosiy ilmiy ahamiyati shundaki, tahlillar asosida huquqbuzarlikka moyillikning shakllanishida ichki (shaxsiy xususiyatlar, temperament, qadriyatlar tizimi) va tashqi (oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit) omillarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib berilgan. Muallif jinoiy tendensiyalarni bashorat qilishda asosiy ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatadi va bu profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Sh.Q. Komiljonov [4] o’zining ilmiy ishida voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini batafsil yoritib beradi. Muallif voyaga yetmaganlarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olib, ularga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida oilaviy disfunksiya, maktabdagi muammolar, tengdoshlar ta'siri va ijtimoiy nazoratning yetishmasligini ajratib ko'rsatadi.

Tadqiqotda umumiy va yakka profilaktika tushunchalari farqlangan holda izohlanadi. Mazkur ishning amaliy ahamiyati pedagoglar, ijtimoiy xodimlar va huquqni muhofaza qilish

organlari xodimlari uchun yo'naltirilgan tavsiyalar tizimi taklif etilishida namoyon bo'ladi. Bu yoshlar huquqbuzarligini o'rganish bo'yicha milliy tadqiqotlarning muhim qismidir.

Sh.Z.Narziyev hamda X.Sotvoldiyev [5] zamonaviy huquqbuzarlikning yangi turi bo'lgan kiberjinoyatlar muammosini tahlil qiladilar. Maqolada kiberjinoyatlarning asosiy turlari (kiberfirebgarlik, kiberpornografiya, virusli dasturlar tarqatish) tasniflanadi va ularning sodir etilish sabablari ijtimoiy-madaniy hamda iqtisodiy-siyosiy nuqtai nazardan baholanadi.

Maqolaning yangiligi shundaki, mualliflar an'anaviy huquqbuzarlik turlaridan farqli o'laroq, kiberjinoyatlarning chegara bilmaslik xususiyati, anonimlik darajasining yuqoriligi va texnologik takomillashuv tezligi bilan bog'liq aniq sabablarni ajratib ko'rsatadilar. Ushbu tahlil raqamli davrda huquqbuzarlik tushunchasini kengaytirish va huquqiy bazani modernizatsiya qilish zaruriyatini asoslaydi.

I.B.Djumaniyazova va boshqalar [6] tomonidan nashr etilgan maqolada hammuallifllar voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik va boshqa salbiy ijtimoiy hodisalarni inson omili nuqtai nazaridan kompleks ravishda tahlil qiladilar. Tadqiqotda huquqbuzarlikning kelib chiqish sabablari sifatida oilaviy muhit, ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning sifati, jinsiy tarbiyaning yetarli emasligi hamda zamonaviy axborot muhitining salbiy ta'siri ajratib ko'rsatiladi.

Mualliflarning yondashuvi diqqatga sazovordir, chunki ular huquqbuzarlik muammosini boshqa ijtimoiy muammolar (erta tug'ruq, oilaviy muammolar) bilan bog’liqlikda o’rganishgan. Maqolada psixologik xizmatlarni kuchaytirish va “maktab-oila-jamiyat” hamkorlik modelining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi va mazkur yondashuv huquqbuzarlikning ko'p qirrali tabiatini tushunishga yordam beradi.

Tahlil qilingan adabiyotlar huquqbuzarlik mavzusining ko'p qirraliligini va tadqiqot yondashuvlarining xilma-xilligini ko’rsatadi. Tahlil qilingan adabiyotlarning umumiy xulosalariga ko'ra, huquqbuzarlikning sodir etilishida bir necha asosiy omillar guruhi roli aniqlangan: birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ishsizlik, kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik); ikkinchidan, oilaviy-tarbiyaviy omillar (oilaviy disfunksiya, nazoratsizlik); uchinchidan, psixologik omillar (shaxsiy moyillik, deviant xulq-atvor); to'rtinchidan, ta'limiy-ma'rifiy omillar (huquqiy ongning pastligi, huquqiy savodxonlik yetishmasligi); va beshinchidan, texnologik omillar (raqamli muhitning kengayishi natijasida kiberjinoyatlarning paydo bo'lishi).

Adabiyotlarning aksariyati huquqbuzarlik profilaktikasida kompleks yondashuv – nazariy bilim, amaliy pedagogika va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining birgalikda qo'llanilishi zarurligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi mavzusi alohida e'tiborga ega bo'lib, bu yo'nalishda "maktab-oila-jamiyat" hamkorlik modelining samaradorligi turli mualliflar tomonidan tasdiqlanadi.

Tahlillar natijasi

O‘tkazilgan tahlillar natijasida huquqbuzarlikni aniqlash uchun quyidagi belgilar muhim ekanligi aniqlandi:



1-chizma. Huquqbuzarlik belgilari

Huquqbuzarlikning yuridik tarkibini aniqlash huquqbuzarlik haqidagi tushunchani kengroq anglash uchun muhim hisoblanadi. Ushbu tarkibga quyidagilar kiradi: huquqbuzarlikning obyekti , obyektiv tomoni, subyekti hamda subyektiv tomoni.

Huqubuzarlik obyekti - bu huquq bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatlarning umumiy, maxsus va bevosita obyektlari farqlanadi.

Huqubuzarlikning obyektiv tomoni - bu huquqqa zid xatti-harakatning tashqi belgisidir. Aynan shunday belgiga asosan huquqbuzarlik haqida, u qanday ro'y bergani va qanchalik zarar keltirgani haqida mulohaza yuritish mumkin bo' ladi.

Huquqbuzarlik subyekti - bu huquqqa zid aybli qilmishni sodir etgan shaxs, ya'ni huquqbuzardir. Har qanday shaxs ham huquqbuzarlik subyekti hisoblanmaydi, faqat o‘z qilmishiga javob bera oladigan, aqli raso shaxsgina shunday subyekt sifatida tan olinadi.

Huquqbuzarlikning subyektiv tomoni-sodir qilingan qilmishiga nisbatan shaxsning ruhiy munosabati bo‘lib, uning zaruriy belgisi aybdir.

Huquq buzarlik odatda 4 guruhga bo‘linadi:

Intizomiy huquqbuzarlik bu- xizmat burchini bajarib turganda har qanday mehnatda majburiy bo‘lgan mehnat tartibqoidalarining va rahbarlikka bo‘ysunish tamoyillarining buzi lishi. Masalan, ishga, o‘qishga kech qolish, ishga yoki o‘qishga sababsiz kelmaslik yoki sababsiz ketib qolish, ishga mast holda, spirtli ichimliklar, narkotik moddalar iste’mol qilgan holda kelish va boshqalar.

Fuqarolik huquqbuzarligi insonlarning mulkiga yoki shaxsiga qarshi qonunga xilof harakat(yoki harakatsizlik) natijasida yetkazilgan zarar hisoblanadi. Masalan, bir shaxsdan qarz olib, uni vaqtida qaytarmaslik; shartnoma larni, majburiyatlarni bajarmaslik va boshqalar.

Jinoiy huquqbuzarlik jinoyat sodir etish, ya’ni o‘g‘rilik, talonchilik, odam o‘ldirish, ichki ishlar xodimiga qarshilik ko‘rsatish va boshqalar. Bu eng og‘ir tur

bo‘lib, jamiyat uchun katta xavf tug‘diradi.
Ma’muriy huquqbuzarlik esa qonunga binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, fuqarolarga, tabiiy muhitga nisbatan (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik. Masalan, mayda be zorilik, yo‘l harakati va transport vositalaridan foydalanish qoidalari, pasport tizimi va qayd etish qoidasi (harbiy va pasportni ro‘yxatdan o‘tkazish qoidalari);
elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzish, atrof muhitni, tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish sohasidagi huquq buzarliklarni olish mumkin.

Huquqbuzarliklar tasodifan yuz bermaydi ularning ortida turli ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va tarbiyaviy omillar yotadi. Ularning asosiy sabablari quyida tahlil qilingan.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar huquqbuzarliklarning eng asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda ishsizlik darajasining yuqoriligi, kambag‘allik, moddiy yetishmovchilik kabi muammolar odamlarni noqonuniy yo‘llar bilan daromad topishga undashi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tengsizlik kuchli bo‘lgan hududlarda jinoyatchilik darajasi yuqoriroq bo‘lishi kuzatiladi. Moddiy ehtiyojlar qondirilmaganda ayrim shaxslar o‘g‘rilik, firibgarlik kabi huquqbuzarliklarga qo‘l uradi. Shu sababli iqtisodiy barqarorlik huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Shaxsning bolalik davrida olgan tarbiyasi uning kelajakdagi xulq-atvoriga bevosita ta’sir qiladi. Agar bola noto‘g‘ri muhitda ulg‘aysa, ota-onaning e’tibori yetarli bo‘lmasa yoki oilada nizolar ko‘p bo‘lsa, bu uning salbiy yo‘lga kirishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tarbiya jarayonida qonunlarga hurmat, odob-axloq me’yorlari o‘rgatilmasa, shaxsda mas’uliyat hissi shakllanmaydi. Natijada bunday insonlar huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lib qoladi.

Huquqbuzarliklarning kelib chiqishida insonning ruhiy holati ham katta rol o‘ynaydi. Doimiy stress, ruhiy bosim, agressiya yoki depressiya kabi holatlar shaxsning o‘z harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini pasaytiradi. Ba’zi hollarda inson hissiyotlarga berilib, oqibatini o‘ylamasdan huquqbuzarlik sodir etadi. Shuningdek, ayrim ruhiy kasalliklar ham shaxsning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois psixologik sog‘lomlikni ta’minlash muhimdir.

Ko‘plab huquqbuzarliklar insonlarning qonunlarni yetarli darajada bilmasligi natijasida sodir etiladi. Ba’zi odamlar o‘z harakatining noqonuniy ekanligini anglamasligi yoki qonun talablarini to‘liq tushunmasligi mumkin. Bu esa bilib-bilmay huquqbuzarlik qilishga olib keladi. Huquqiy bilimlarning yetishmasligi jamiyatda qonunlarga bepisandlikni ham kuchaytiradi. Shuning uchun aholining huquqiy savodxonligini oshirish muhim vazifalardan biridir.

Inson yashayotgan muhit uning xulqiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Agar shaxs salbiy muhitda, masalan, jinoyatchilik keng tarqalgan joyda yoki yomon do‘stlar davrasida bo‘lsa, u ham shu yo‘lga kirib qolishi mumkin. Ayniqsa yoshlar o‘z tengdoshlariga taqlid qilishga moyil bo‘lgani uchun noto‘g‘ri muhit ularni huquqbuzarlikka undaydi. Ijobiy muhit esaksincha, shaxsni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalaydi.

Spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar inson ongiga salbiy ta’sir qilib, uning o‘zini nazorat qilish qobiliyatini pasaytiradi. Mast holatda yoki narkotik ta’sirida bo‘lgan shaxs ko‘pincha oqibatni o‘ylamay harakat qiladi va turli huquqbuzarliklarni sodir etishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘plab jinoyatlar aynan mast holatda amalga oshiriladi. Shu sababli bu omil juda xavfli hisoblanadi.

Agar jamiyatda qonunlar to‘liq ishlamasa yoki jazolarning muqarrarligi ta’minlanmasa, huquqbuzarliklar soni oshadi. Odamlar jazodan qo‘rqmasa yoki qonunlar teng qo‘llanilmasa,

huquqbuzarlikka moyillik kuchayadi. Shu bois davlat tomonidan qonun ustuvorligini ta’minlash, adolatli sud tizimini yo‘lga qo‘yish va javobgarlikni muqarrar qilish juda muhimdir.

Huquqbuzarliklar ko‘pincha birgina sabab emas, balki bir nechta omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ularni kamaytirish uchun har bir sababni alohida o‘rganib, kompleks choralar ko‘rish zarur. Jamiyatda sog‘lom muhit yaratish, ta’lim va tarbiyani kuchaytirish hamda qonunlarga hurmatni shakllantirish huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Huquqbuzarliklar - bu jamiyatdagi qonuniy tartibning buzilishi bo‘lib, ular turli darajada va shakllarda namoyon bo‘ladi. Jinoyat, ma’muriy, fuqarolik-huquqiy va intizomiy huquqbuzarliklar bir-biridan farq qilsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat - jamiyatga zarar yetkazishidir. Har bir tur o‘ziga xos oqibatlarga olib keladi va tegishli javobgarlik choralarini talab qiladi.

Huquqbuzarliklarning yuzaga kelishi esa tasodifiy emas, balki insonning ijtimoiy hayoti, tarbiyasi, dunyoqarashi va atrof-muhit ta’siri bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, iqtisodiy qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, huquqiy bilim yetishmasligi va salbiy muhit eng ko‘p uchraydigan sabablar sirasiga kiradi. Bu omillar birgalikda insonni noto‘g‘ri qaror qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, huquqbuzarliklarning oldini olish faqat jazolash bilan emas, balki ularning ildiz sabablarini bartaraf etish orqali samarali bo‘ladi. Jamiyatda adolatli tizim, kuchli tarbiya va yuqori huquqiy madaniyat shakllansa, huquqbuzarliklar sezilarli darajada kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saydullayev, Sh. A. (2024). *Davlat va huquq nazariyasi*. Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti.
2. Temirov, B. (2024). Huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish faoliyatini takomillashtirish. Support Science: Online Journal of Humanities and Pedagogical Literature, 4(5), 180–187. https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-05-21
3. Sayfiddinova, D. A. (2024). Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar. TADQIQOTLAR.UZ – Jahon ilmiy-metodik jurnali, 43(1), 64–67. https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/4145
4. Komiljonov, Sh. Q. (2024). Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning o'ziga xosligi. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 20(3), 38–40. https://web-journal.ru/ilmiy/article/view/4834
5. Narziyev, Sh. Z., & Sotvoldiyev, X. (2024). Butun jahonda sodir etilayotgan kiber jinoyatlar va ularning oldini olishda vujudga kelayotgan muammolar. TADQIQOTLAR.UZ – Jahon ilmiy-metodik jurnali, 30(3), 67–72. https://tadqiqotlar.uz/new/article/download/1936/1798/3565
6. Djumaniyazova, I. B., Ro'zimova, S. D., Xudayberganova, G. S., & Xadjayeva, S. A. (2026). Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va erta tug'ruq muammolari: ilmiy-pedagogik tahlil va profilaktika mexanizmlari. Science and Education, 7(4), 567–574. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/8773